



O‘ZBEKISTONDA MEDIATSIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQIBOLLARI

Yoqubov Jasurbek Salimjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Magistratura va sirtqi ta‘lim fakulteti,

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal qilish usullari yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya

Ushbu tezisda O‘zbekistonda mediatsiya jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli innovatsiyalar, elektron platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar mediatsiya jarayonini samarali tashkil etish va optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar vositasida huquqiy nizolarni hal etishning yangi usullari va mediatorlik jarayonining sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, texnologiyalarning mediatsiya jarayoniga integratsiyasi bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Mediatsiya, sun‘iy intellekt, onlayn platformalar, sud, mediator, kelishuv, taraflar.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ МЕДИАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной тезисе анализируются перспективы использования современных технологий в процессе медиации в Узбекистане. Цифровые инновации, электронные платформы и автоматизированные системы играют важную роль в эффективной организации и оптимизации процесса медиации. Рассматриваются новые методы разрешения правовых споров с использованием современных технологий, а также возможности повышения качества процесса медиации. Кроме того, анализируются проблемы интеграции технологий в процесс медиации и пути их решения.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

Ключевые слова: Медиация, искусственный, интеллект онлайн-платформы, суд, медиатор, стороныю

PROSPECTS FOR THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE MEDIATION PROCESS IN UZBEKISTAN

Abstract

This thesis analyzes the prospects of using modern technologies in the mediation process in Uzbekistan. Digital innovations, electronic platforms, and automated systems play a crucial role in effectively organizing and optimizing mediation processes. The study explores new methods for resolving legal disputes using modern technologies and opportunities for improving the quality of mediation. Additionally, the challenges associated with integrating technology into mediation and possible solutions are examined.

Keywords: Mediation, artificial intelligence, court, mediator, agreement, online platforms, parties.

Kirish:

O‘zbekistonda huquqiy tizimning rivojlanishi va ijtimoiy sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan harakatlar mediatsiyani nizolarni hal qilishda muhim vositaga aylantirdi. Mediatsiya an’anaviy sud jarayoniga muqobil bo‘lib, nizolarni yanada tez va samarali hal qilish imkonini beradi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mediatsiya tez rivojlanib, qo‘llanilish doirasini kengaytirib borayotgani sababli turli sohalarda tobora ko‘proq talab qilinmoqda. O‘zbekistonda mediatsiya 2018-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuni bilan huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Mazkur qonun mediatorlarning faoliyati uchun huquqiy asos yaratdi va mediatsiya jarayonining asosiy tamoyillarini belgilab berdi, jumladan, **ixtiyoriylik, maxfiylik, taraflarning tengligi va mediatorning xolisligi**¹. Ushbu

¹ O‘RQ 482 <https://lex.uz/docs/-3805227>



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

qonun sud tizimidagi ortiqcha yukni kamaytirish hamda aholining huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim islohotlarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, davlat organlarini mediatsiyadan yanada faol foydalanishga rag'batlantirdi.

Mediatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borayotgan talabalar uchun onlayn mediatsiya jarayonining imkoniyatlari, mediatsiyaning kelgusidagi istiqbolli rivojlanishlari muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, mediatsiya jarayonini masofaviy shaklda tashkil etish mumkinmi? Ushbu savol bugungi kunda mediatsiya tizimining rivojlanishiga asos bo'lib, nizolarni muqobil hal qilishning zamonaviy usuli sifatida dunyoning turli davlatlarida ilk bor joriy etilgan tamoyillarning biri sanaladi. Shu bilan birgalikda Singapur mediatsiyasi hamda Singapur konvensiyasini tahlil qilgan holda ushbu tezisimizni yoritib o'tishga harakat qilamiz. Singapur konvensiyasi mediatsiya jarayonining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashishiga imkon yaratadi. Nadja Marie Alexander va Vakhtang Giorgadze o'z tadqiqotlarida konvensiyaning mediatsiya tushunchasining keng ta'riflanishi, kelishuvning yozma shaklda bo'lish talabi, elektron imzo imkoniyati, va mediatsiya joyining aniq belgilangan bo'lmasligi kabi jihatlari zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga mos kelishini ta'kidlaydilar². Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, butun dunyo tan olgan Singapur konvensiyada ham zamonaviy texnologiyalardan qo'llashga imkoniyatlar mavjudligini.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida" qonunining 5-moddasida mediatsiya jarayoni maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, shuningdek, mediatorning mustaqilligi hamda xolisligi prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ixtiyoriylik va taraflarning hamkorligi prinsiplari zamonaviy texnologiyalarni mediatsiya jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, mediatsiya taraflari o'zaro kelishib, muzokaralarni Zoom platformasi yoki Telegram video aloqa orqali olib borishlari mumkin. Mediatsiyaning ixtiyoriylik prinsipi ushbu kelishuv asosida shakllanadi va taraflarning tanloviga mos kelishi lozim. Agar mediator taraflarning ushbu

² The Singapore Convention on Mediation in the Digital Era by Nadja Marie Alexander, Vakhtang Giorgadze :: SSRN



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th June 2025

kelishuvini qo‘llab-quvvatlamasa yoki masofaviy mediatsiya jarayonini o‘tkazishdan bosh tortsa, bu ixtiyoriylik prinsipining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mediatsiya tizimi zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgani sari ushbu imkoniyatlarning huquqiy mustahkamlanishi zarurligi oydinlashmoqda.

Shu o‘rinda mediatsiyada zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ijobiy va salbiy taraflari hamda ushbu sohada texnologiyalar qo‘llanilgandan keyin kutilayotgan natijalarni O‘zbekiston siymosida ko‘rib chiqsak. **Ijobiy taraflari:** **tezkorlik** – taraflar masofadan turib mediatsiya jarayonida ishtirok etishi mumkin, bu esa vaqtni tejaydi. **Qulaylik** – Mediator va taraflar istalgan joydan mediatsiya jarayonini olib borishlari mumkin. **Xarajatlarni kamaytirish** – sayohat va boshqa tashkiliy xarajatlar yo‘q bo‘lgani uchun mediatsiya arzonroq bo‘ladi. **Maxfiylik** – Onlayn platformalar orqali mediatsiya jarayoni maxfiylikini ta‘minlash mumkin³.

Salbiy taraflari: texnik muammolar – internet sifati yoki platforma ishlashidagi nosozliklar mediatsiya jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. **Hujjatlarning huquqiy kuchi** – Elektron kelishuvlarning sud tomonidan tan olinishi uchun maxsus huquqiy normalar talab etiladi. **Shaxsiy muloqot yetishmovchiligi** – Onlayn mediatsiya yuzma-yuz uchrashuvga nisbatan hissiy jihatdan kamroq ta‘sirchan bo‘lishi mumkin.

Xulosa: O‘zbekistonda mediatsiya jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish huquqiy nizolarni hal qilishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Videokonferensiyalar, elektron hujjatlar, raqamli imzo va mediatorlik platformalari kabi texnologiyalar mediatorlar va taraflarga masofaviy muloqot qilish imkonini yaratib, vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi. Kelajakda mediatsiya tizimining innovatsion yondashuvlar asosida rivojlanishi O‘zbekiston huquqiy tizimi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron mediatsiya qonuniy mustahkamlanishi, xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashishi hamda mediatorlar o‘rtasida texnologik malakani oshirish O‘zbekistonda nizolarni hal qilishning zamonaviy va samarali modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu istiqbollarni

³ Mediation as a Modern Method of Dispute Resolution in Uzbekistan | Middle European Scientific Bulletin



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

hisobga olgan holda, mediatsiya jarayonining raqamlashtirilishi nafaqat huquqiy tizimni zamonaviylashtirishga, balki jamiyatdagi nizolarni tez va odil hal etishga ham katta hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘RQ 482 <https://lex.uz/docs/-3805227>
2. The Singapore Convention on Mediation in the Digital Era by Nadja Marie Alexander, Vakhtang Giorgadze :: SSRN
3. Mediation as a Modern Method of Dispute Resolution in Uzbekistan | Middle European Scientific Bulletin